
Toshloqda DXX kubogi final uchrashuvi chinakam yoshlar bayramiga aylandi

Toshloq tumanida mahalla yoshlari o'rtasida sportning futbol turi bo'yicha "Davlat havfsizlik xizmati kubogi" musobaqalarining tuman bosqichi yakuniga yetdi.

O'tkazilgan DXX boshlig'i kubogi bahslarida tumandagi barcha mahalla jamoalari ishtirok etishdi. Final o'yinida oldingi bosqichlarda muvaffaqiyat qozongan "Nayman" va "Qumqishloq" mahallalaridagi yoshlardan iborat jamoalar to'p surdilar.

Murosasiz bahsda 1-sektor hududidagi "Nayman" mahallasining yoshlari g'alaba qozonishdi va tuman chempioni sifatida musobaqaning viloyat bosqichiga yo'llanma olishdi.

Cportning mini futbol va futbol turi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan mahalla fuqarolar yig'ini jamoalari: "Mini futbol" turi bo'yicha:1-o'rin "So'filar" MFY (3-sektor).2-o'rin "Sadda" MFY (3-sektor).3-o'rin "Chek" MFY 1-sektor).

"Futbol" turi bo'yicha:1-o'rin "Nayman" MFY (1-sektor).2-o'rin "Qumqishloq" MFY (2-sektor).3-o'rin "Xotinqumi" MFY (3-sektor).

Qizlar o'rtasida "Mini futbol" turi bo'yicha:1-o'rin "Qipchoqariq" MFY (4-sektor).2-o'rin "Chek" MFY (1-sektor).3-o'rin "Axshak" MFY (3-sektor).

Musobaqa yakunida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektor rahbarlari hamda DXX Marg'ilon shahar bo'limi boshlig'i Oybek Farmonov g'oliblarga diplom va qimmatbaho esdalik sovg'alar topshirdilar.

2024-06-05 10:24:17